



MOLIYA TIZIMI VA FANDAGI O'RNI

Nasimova Yulduz Baxriddin qizi
Toshkent moliya instituti Bank ishi
fakulteti 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqolada “Moliya va soliqlar” fani iqtisodiy rivojlanishning bugungi sharoitida milliy iqtisodiyotda moliya tizimining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi va moliyaviy resurslarni vujudga kelishi va uni sarflanishining umumiy qonuniyatlari hamda mavjud mexanizmi to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi, sug‘urta, davlat moliyasi

KIRISH

Bizga ma’lumki, moliya munosabatlarning soha va bo‘g‘inlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning yig‘indisi moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o‘z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Moliya tizimi bir tomondan moliya munosabatlarning yig‘indisi sifatida, ikkinchi tomondan moliya organlarining yig‘indisi sifatida olib qaraladi. Moliyaning mohiyatidan kelib chiqib, moliya tizimini o‘rganishda uni moliya munosabatlari yig‘indisi sifatida yondashish maqsadga muvofiq. Moliyaviy munosabatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra taqsimlovchi hisoblanadi, shu bilan birga qiymatni taqsimlash, avvalo, subyektlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Subyektlar ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, maqsadli pul fondlarini shakllantiradilar. Aynan subyektning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli moliyaviy munosabatlarni turkumlashning birlamchi obyektiv belgisi hisoblanadi. Bunga asosan moliyaviy munosabatlarning yig‘indisida uchta yirik sohalar ajratilishi mumkin:

- korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi;
- sug‘urta;
- davlat moliyasi.



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Har bir sanab o‘tilgan soha ichida bo‘g‘inlar ajraladi, shu bilan birga moliyaviy munosabatlarni guruhlashtirish subyekt faoliyatining maqsadli pul fondlarini tarkibi va yo‘nalishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatuvchi xarakteridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mazkur belgi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi sohasida tijorat asosida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar moliyasi, notijorat faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va muassasalar moliyasi, jamoat birlashmalari moliyasi kabi bo‘g‘inlarni hosil qilish imkoniyatini beradi. Sug‘urta sohasida, subyekt faoliyatining xarakteri sug‘urta obyektining xususiyatini belgilab beruvchi, bo‘g‘inlar sifatida ijtimoiy sug‘urta, shaxsiy sug‘urta, mulkiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasi hisoblandi. Davlat moliyasi sohasida – davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti hisoblanadi. Moliya tizimi moliya organlari va muassasalari yig‘indisi sifatida ham ishlatiladi. Moliya tizimini alohida bo‘g‘inlariga ajratish har bir bo‘g‘inning vazifalaridagi farqlanishga hamda markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakillantirish va ishlatish usullaridagi farqlanishga asoslanadi. Markazlashgan pul fondlari moddiy ishlab chiqarish soxalarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo‘li bilan tuziladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davlatning bajarilgan muhim roli uning ixtiyorida moliyaviy resurslarning kata qismi markazlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Ularni ishlatish shakillari davlat byudjeti va nobyudjet fondlari orqali namoyon bo‘ladi. Bular xisobidan davlatning iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy vazifalarini xalq etish ehtiyoji ta’minlanadi. Pul fondlarini tashkil qilish va ishlatish shakillari va usullari moliya tizimining kredit va sug‘urta bo‘g‘inlari orqali qo‘llaniladi. Markazlashmagan pul fondlari korxonalarni o‘zlarining pul daromadlari va jamg‘armalari hisobidan tashkil topadi.

Yagona moliya tizimining asosi korxonalar moliyasi hisoblanadi, chunki ular moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Markazlashgan davlat



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

fondlarining manbai moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilayotgan milliy daromad hisoblanadi.

Umumdavlat moliyasi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari rivojlanishining ma‘lum suratlarning ta‘minlashda moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat xududlari o‘rtasida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o‘rtasida hamda mulk shakllari aholining alohida guruh va qatlamlari o‘rtasida qayta taqsimlashda yetakchi rol o‘ynaydi.

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlatning faol moliyaviy siyosati asosidagina mumkin bo‘ladi.

Moliya tizimi orqali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini jamg‘arish va iste‘mol fondlarini soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari, davlat kreditini qo‘llash bilan shakllantirishga ta‘sir o‘tkazadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jarayonida turli pul fondlaridan shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarning majmuiga moliya tizimi deyiladi. Unga boshqacha ham ta‘rif berish mumkin: davlat va korxonalarining pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliya tizimi deyiladi. “Moliya tizimi” tushunchasi keng ma‘nodagi “moliya” tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va prinsipial jihatdan butunlay yangi bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlariga nisbatan obyektiv ravishda yangicha yondoshuvni taqazo etdi. Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliya tizimi quyidagi ikki sohaga bo‘linadi:

- davlat moliyasi va mahalliy moliya;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi.



O‘z navbatida, moliya tizimining har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning konkret shakllari va metodlariga bog‘liq ravishda bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi bo‘g‘inlardan tashkil topishi mumkin:

- Davlat byudjeti;
- maqsadli nobyudjet fondlari;
- davlat krediti.

Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi quyidagi bo‘g‘inlardan iborat:

- tijorat korxonalar va tashkilotlari moliyasi;
- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.

Moliya tizimining alohida sohalar va bo‘g‘inlarga bo‘linishi YAIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar subyektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliya tizimining har bir sohasi va bo‘g‘iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos bo‘lgan shakllari va metodlari tegishlidir. Masalan, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarishga, YAIMni yaratishga, uni korxonalar o‘rtasida taqsimlashga va YAIM bir qismining byudjet va nobyudjet fondlariga qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Davlat byudjeti orqali resurslar davlatning markazlashtirilgan fondiga jalb qilinadi va ular iqtisodiy mintaqalar, tarmoqlar va aholining sotsial guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlanadi.

Moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida Davlat byudjeti o‘z ichiga quyidagilarni oladi:


- respublika byudjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.



NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi. Viloyatning byudjeti esa viloyat byudjetini va viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo‘linadigan shaharning byudjeti shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlaridan iborat. Va nihoyat, tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar byudjetidan tashkil topadi.

Moliya munosabatlarning soha va bo‘g‘inlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning yig‘indisi moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi moliya organlari va muassasalari yig‘indisi sifatida ham ishlatiladi. Moliya tizimining barcha bo‘g‘inlari o‘z navbatida ichki moliyaviy munosabatlar tarkibidan kelib chiqib quyi bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Demak, tijorat asosida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar moliyasi tarkibida, tarmoq yo‘nalishidan kelib chiqib, sanoat korxonolari moliyasi, qishloq xo‘jaligi korxonolari moliyasi, savdo korxonolari moliyasi, transport korxonolari moliyasi va boshqa mulkchilik shaklidan kelib chiqib, davlat korxonolari moliyasi, shirkat korxonolari moliyasi, aksionerlik jamiyatlari moliyasi, xususiy korxonalar va boshqalar moliyalariga bo‘linishi mumkin.



1.1-chizma. **Moliya tizimining sohalari va bo'g'lari**¹

Moliya tizimining alohida sohalar va bo'g'inlarga bo'linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliya tizimining har bir sohasi va bo'g'iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos shakllari va metodlari tegishlidir. Masalan, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarishga, YaIMni yaratishga, uni korxonalar o'rtasida taqsimlashga va YaIM bir qismining byudjet va byudjetdan tashqari jamg'arma fondlariga qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Davlat byudjeti orqali resurslar davlatning markazlashtirilgan

¹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti.



fondigajalb qilinadi va ular iqtisodiy mintaqalar, tarmoqlar va aholining ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi moliya tizimi bo'yicha keltirilgan ta'riflarda mantiqiy yahlitlik mavjud bo'lib, ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlanish jarayonida hosil bo'ladigan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayoni moliya tizimining markaziy mazmunini tashkil qilishi ta'kidlanadi.

Demak, moliya tizimi – moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Moliya tizimi orqali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini, jamg'arish va iste'mol fondlarini soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari, davlat kreditini qo'llash bilan shakllantirishga ta'sir o'tkazadi.

Davlat byudjeti davlat moliya tizimining bosh bo'g'ini hisoblanadi. U davlat boshqaruv organlari funksiyalarini ta'minlash uchun markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikov T., Xaydarov N., "Byudjet daromadlari va xarajatlari" o'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y., 245 b.
2. Malikov T., Xaydarov N., "Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni" o'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2008 y., 84 b.
3. Malikov T.S., Gaydarov N. X- Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, 556 bet.
4. B.Sh.Safarov, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik//. -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 512 b.